Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(Impact Factor) 9.573/2026
ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Google Scholar
doi® digital object identifier
Academic Resource Index ResearchBib
Crossref
SLIB.UZ Scientific library of Uzbekistan

2/2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg‘un G‘AFUROV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa’d DAMANHURIY – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2026-yil 26-oktyabrdagi 03-07/8377-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

Muassis:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:

Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Shahzod Islamov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:

Zarifjon Arslonov

Dizayner:

Zarifjon G‘ulomov

«**MOTURIDIYLIK**» jurnali **O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiya**sining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 11-uy.
E-mail:info@maturidijournal.org
Web-sahifa:maturidijournal.org
Telefonlar:(+99855) 515-98-98

МУНДАРИЖА

ISLOMSHUNOSLIK

Muzaffar KAMILOV
Sirojiddin O‘shiyning «al-Fatovo» asarida muftiy odoblari va unga qo‘yiladigan talablar 4

Otabek MUHAMMADIYEV
Dorul hadis – hadis markazlari faoliyati tahlili 15

Mekhrojiddin AMONOV
Zarafshon vohasidagi tariqat murshidlari: o‘zaro munosabat va tahlil 26

Hamida ILHOMOVA
Abu Hanifa shaxsiyati va ilmiy merosining o‘rganilishi 34

ISLOM HUQUQI

Nargiza KHALKHODJAEVA
Islomda farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq sunnat amallarning tarbiyaviy ahamiyati 41

Rakhshona KENJABOYEVA
Sadr shahid Husomuddin Umar Buxoriyning «Kitob al-vaqf» asarida faqihlarning vaqf nazariyasi: fiqhiy bahslar va ularning huquqiy ahamiyati 47

DINSHUNOSLIK

Rustamjon BOZOROV
«Tablig‘ jamoati»ning Markaziy Osiyoda tarqalish omillari va milliy xavfsizlikka ta’siri 57

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI

Shahzod ISLAMOV, Olovkhon NEMATOV
Abu Hafs Nasafiyning «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari VIII–XII asrlar Samarqand ilmiy muhiti haqidagi nodir manba 64

Doston MUSTAFOYEV
Tarjumon al-Qur’on – Qur’on lug‘ati ma’nolariga oid xalqchil risola 80

FILOLOGIYA

Nodirabegim SAIDOVA
Bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish (oliy ta’lim muassasalari tajribasi misolida) 86

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-2/6

Rakhshona KENJABOYEVA[a]

[a]*Doctor of Philosophy in Islamic Studies*
E-mail: r.kenjaboyeva1702@gmail.com

SADR SHAHID HUSOMUDDIN UMAR BUXORIYNING «KITOB AL-VAQF» ASARIDA FAQIHLARNING VAQF NAZARIYASI:FIQHIY BAHSLAR VA ULARNING HUQUQIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sadr shahid Husomuddin Umar Buxoriyning «Kitob al-vaqf» asarida bayon etilgan vaqfga oid fiqhiy qarashlar, ijtihodiy tafovutlar va ularning usuliy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda asarning ikki qo'lyozma nusxa asosida ilmiy-tahqiqiy nashrga tayyorlangani, unda keltirilgan hanafiy faqihlar qarashlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Xususan, Abu Hanifa, Abu Yusuf, Muhammad ibn Hasan Shayboniy, Zufar ibn Huzayl, Abu Ja'far Tahoviy, Hilol ibn Yahyo va boshqa faqihlarning vaqf mulkining huquqiy maqomi, vaqfdan foydalanuvchilarni belgilash, farzandlar va qarindoshlarga vaqf qilish, shuningdek, vaqf daromadining haqdorlarga o'tish vaqtiga oid qarashlari qiyosiy o'rganilgan.*

Shuningdek, Sadr shahidning fiqhiy ixtiloflarni bayon etish bilan cheklanmay, ularning asoslarini tahlil qilishi va zarur hollarda o'z ijtihodiy xulosasini qiyos va istihson usullari orqali asoslashiga alohida e'tibor qaratilgan. Vaqfdan foydalanuvchining faqirlik maqomini belgilashda mol-mulk, daromad, kasb qilish qobiliyati, yerning hosildorligi va ehtiyoj darajasi kabi mezonlarning qo'llanilishi tahlil qilingan. Ikki yuz dirham mezoni, vaqf daromadining shakllanish vaqti hamda uning merosga o'tish masalalari ham tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *Sadr shahid, Husomuddin Umar Buxoriy, «Kitob al-vaqf», vaqf, hanafiy fiqhi, fiqhiy ixtilof, ijtihod, qiyos, istihson, Abu Hanifa, Abu Yusuf, Muhammad Shayboniy, vafq mulki, vafq daromadi, faqirlik, haqdorlik, islom huquqi.*

THE WAQF THEORY OF FAQIHS IN «KITAB AL-WAQF» BY SADR SHAHID HUSAM AL-DIN AL-BUKHARI:JURISPRUDENTIAL DEBATES AND THEIR LEGAL SIGNIFICANCE

Abstract. *This article analyzes the jurisprudential (fiqhi) views, legal reasoning (ijtihad) differences, and foundational principles (usul) on endowment (waqf) presented in the work Kitab al-Waqf by Sadr al-Shahid Husam al-Din Umar al-Bukhari. The study highlights the features of the Hanafi jurists' views included in the work, which was prepared for a critical scholarly edition based on two manuscript copies. In particular, comparative research is conducted on the views of Abu Hanifa, Abu Yusuf, Muhammad ibn al-Hasan al-Shaybani, Zufar ibn al-Huzayl, Abu Ja'far al-Tahawi, Hilal ibn Yahya, and other jurists regarding the legal status of waqf property, the designation of beneficiaries, the endowment for children and relatives, as well as the timing of the transfer of waqf revenue to eligible beneficiaries.*

Furthermore, special attention is given to how Sadr al-Shahid does not merely present jurisprudential disagreements (ikhtilaf), but analyzes their legal foundations and, where necessary, justifies his own legal conclusions through the methods of analogy (qiyas) and juristic preference (istihsan). The application of criteria such as wealth, income, earning capacity, land productivity, and level of need in determining the status of poverty for a beneficiary is examined. The two-hundred-dirham threshold, the timing of waqf revenue generation, and matters of its inheritance are also investigated.

Keywords: *Sadr al-Shahid, Husam al-Din Umar al-Bukhari, Kitab al-Waqf, waqf, Hanafi jurisprudence, jurisprudential disagreement (ikhtilaf), ijtihad, qiyas, istihsan, Abu Hanifa, Abu Yusuf, Muhammad al-Shaybani, waqf property, waqf revenue, poverty, eligibility, Islamic law.*

KIRISH

Sadr shahid Husomuddin Umar Buxoriyning «Kitob al-vaqf» asari ilk bor 2013-yilda Saudiya Arabistonida Abdulloh Nazir Ahmad tomonidan tadqiq etilib nashr qilingan. Muhaqqiq mazkur nashrga kitobning ikki qo‘lyozma nusxasini asos qilib olgan:

1. Makka shahridagi «Haram» kutubxonasida №2508 inventar raqami ostida saqlanadigan nusxa.

2. Istanbul shahridagi «Murod mulla» yoki «Domad zoda» kutubxonasida №3/731 raqam ostida saqlanadigan IX asrga oid qo‘lyozma.

Muhaqqiq «Vaqf kitobi»ni nashrga tayyorlashda mazkur ikki nusxani qiyosiy o‘rgangan va manbaning asl ko‘rinishini saqlash maqsadida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratgan:

1. «Tanlangan (to‘g‘ri) matn» uslubi asosida asl nusxada uchraydigan farqlarni («tushib qolgan» yoki «qo‘shilib qolgan») hamda boshqa nusxadagi asl nusxaga xilof bo‘lgan («to‘g‘ri» yoki «eng to‘g‘ri») matnni ko‘rsatgan va tanlangan to‘g‘ri matnni to‘rtburchak qavs [ ] ichiga kiritgan, ikki nusxadagi farqlarni esa tanlov sababini ochiqlash maqsadida izohda ko‘rsatgan.

2. Kitobni paragraflarga ajratgan, punktuatsiya belgilarini qo‘ygan.

3. Kitobda kelgan hadis va rivoyatlarni taxrij qilgan.

4. Kitobda nomlari zikr qilingan ba’zi faqihlarning tarjimai hollarini kiritgan.

6. Ayrim ilmiy atamalarga izohlar berib o‘tgan.

8. Kitobning boshida muallifning qisqacha tarjimai holini keltirgan.

ASOSIY QISM

Husomuddin Buxoriy «Kitob al-vaqf» asarida fiqhiy masalalarni yoritishda quyidagi faqihlarning qarashlariga murojaat qiladi:

1. Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit ibn Zutiy. Imom Abu Hanifa kalom, fiqh va hadis ilmlariga oid kitoblar yozganlar (Muhammad Ayyub Homidov, 2022:39-47).

2. Abu Yusuf YA’qub ibn Ibrohim ibn Habib Ansoriy. Hijriy 113-yilda tug‘ilgan. Faqih, mufassir va tarixchi sifatida tanilgan. Hijriy 182-yil Bag‘dodda vafot etgan. Uch abbosiy xalifa – Mahdiy, Hodiy va Horun Rashid davrida bosh qozi lavozimida faoliyat yuritgan (Shayx Muhammad Huzariybek, 1975:171).

3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Hasan ibn Farqad Shayboniy. Ba’zi tadqiqotchilar uning ismini Muhammad ibn Hasan ibn Ubaydulloh ibn Marvon shaklida keltiradilar. U Muhammad ibn Hasan Abu Hanifaning yetuk shogirdlaridan biri bo‘lgan (Dovudiy, 1972:26).

4. Imom Zufar nomi bilan tanilgan Abu Zuhayl Zufar ibn Huzayl ibn Qays Anbariy. Hijriy 110-yilda tug‘ilgan (Sadr shahid, 2013:21).

5. Abu Ja’far Ahmad ibn Muhammad ibn Saloma Tahoviy. «Osor» («Sharh maoniy al-osor») va «Sunan» asarlarini yozgan. Dastlab shofeiy mazhabida bo‘lgan, so‘ngra hanafiy mazhabiga o‘tgan. Taxminan hijriy 300-yildan biroz o‘tib vafot etgan. (Sam’oniy, 1998:120-125) (Bu o‘rinda o‘zbek tiliga «biroz o‘tib» deb tarjima qilingan «نيف» so‘zi klassik arab tilida yilni ifodalash uchun ishlatiladi va1-3 yil oralig‘idagi davrni bildiradi. Asl manbada:«nif va salasa mi’a» – «nif va uch yuz» shaklida ishlatilgan).

6. Abu Xolid Samtiy Yusuf ibn Xolid ibn Umar. Abu Hanifaning as’hoblaridan bo‘lgan. Saymuriyning aytishicha, u Abu Hanifaning eski as’hoblaridan edi. U Abu Hanifadan ko‘plab ilmlarni o‘rgangan. Hijriy 189-yilda vafot etgan (Qurashiy, 1914:626).

7. Nasr ibn Muhammad ibn Ibrohim Tavdiy. Abu Hanifaning faqih as’hoblaridan bo‘lib, asosan munozara jadal ilmlarida tanilgan. Samarqandda yashab, hijriy 393-yil shu yerda vafot etgan. Ko‘plab asarlar yozib qoldirgan (Sam’oniy, 1998:491).

8. Ahmad ibn Isma Abul Qosim Saffor. Hamim laqabi bilan tanilgan, hijriy 326-yilda vafot etgan. (Qurashiy, 1914:78).

9. Faqih Abu Abdulloh Muhammad ibn Salama. U Abu Sulaymon Juzjoniydan fiqh ilmini o‘rgangan. Hijriy 278-yilda vafot etgan (Qurashiy, 1914:56).

10. Muhammad ibn Ahmad Abu Bakr Iskof Balxiy. Hijriy 336-yilda vafot etgan (Qurashiy, 1914:239).

11. Abu Bakr ibn Abu Said. Hijriy 328-yilda vafot etgan. (Zabidiy, 1992:52).

12. Muhammad ibn Abdulloh ibn Muhammad Abu Ja’far Hinduvoniy. Balxlik yetuk olim va imom. Manbalarda u haqda shunday deyilgan:«U fiqhda kichik Abu Hanifadir. Mushkul masalalar bo‘yicha fiqhiy hukmlar chiqargan, murakkab muammolarni tushuntirib, tushunarsiz jihatlarni ochib bergan. Hijriy 392-yil Buxoroda vafot etgan» (Maqriziy, 1924:179).

13. Nasr ibn Yahyo. Fiqh ilmini Abu Sulaymon Juzjoniydan, u Imom Muhammaddan o‘rgangan. Hijriy 268-yilda vafot etgan (Qurashiy, 1914:200).

14. Abu Nasr Muhammad ibn Sallom. Hijriy 305-yilda vafot etgan (Qurashiy, 1914:268).

15. Ali ibn Ahmad Forsiy. Qurashiyning «at-Tabaqot» kitobida uning ehtiyoj vaqtida aytib yuradigan duosi zikr qilingan (Qurashiy, 1914:514).

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Shu bilan birga, kitobda «mashoyixlarimiz», «mutaqaddimin», «mutaaxxirin» kabi lafzlar orqali ham fiqh ulamolariga ishora qilingan.

«Kitob al-vaqf»da faqihlar qarashlaridagi tafovut ko‘plab o‘rinlarda uchraydi. Sadr shahid aksar hollarda faqihlar fikrini keltirib, uning asoslarini tushuntiradi. Yakunda esa o‘z ijtihodini bayon qiladi. Ba’zi faqihlar qavllarini keltirib, dalillarini sharhlar ekan, o‘z ijtihodiy uslubi bilan unga e’tiroz bildiradi. Ba’zi o‘rinlarda esa o‘zining ham o‘sha qarashda ekanini ko‘rsatadigan qisqa ishoralar, zarur o‘rinlarda dalillar keltiradi. Sadr shahid asarida usul al-fiqhning qiyos va istihson uslublariga juda keng o‘rin berilgan. Muallif ko‘plab fiqhiy masalalarning qiyosga ko‘ra hukmi va istihsonga ko‘ra hukmini ajratib ko‘rsatib, ketma-ketlikda zikr qilgan.

MUHOKAMA

Faqihlarning farqli qarashlari ifoda etilgan mavzulardan biri vaqf mulkining joiz bo‘lish sharti masalasiga aloqadordir (Sadr shahid, 2013:20-24). «Kitob al-vaqf»da vaqfning joiz bo‘lish sharti borasidagi fikrlar o‘rtasidagi farq xususida so‘z borar ekan, eng avvalo, mazhab imomi Abu Hanifaning qarashlari keltiriladi. Abu Hanifa nazdida vaqf vasiyat yoki vafotdan keyinga bog‘langan narsa ekani, agar inson vasiyat qilmasa va uni o‘limdan keyinga bog‘lamasa, u sahih bo‘lmasligi, shunday ekan, demak, vaqf qiluvchi hayotlik chog‘ida uni sotishi, vafotidan keyin esa meros qilib qoldirishi mumkinligi ta’kidlanadi. Abu Yusuf va Muhammadning esa mazkur shartni joizlik sharti deb bilmaganliklari qayd etiladi.

Sadr shahid bu holatni sharhlab o‘z fikrini bayon qiladi. Uning fikriga ko‘ra, mazkur farq olimlar tomonidan vaqfga qanday ta’rif berilishidan kelib chiqadi. Jumladan, Imom Abu Hanifa vaqfga quyidagicha ta’rif bergan:«Aynni mulkimda habs qildim (to‘sdim) va ma’dum (mavjud bo‘lmagan, ya’ni ayni vaqtda qo‘lga kiritilmagan, kelajakda olinishi kutilayotgan) foydani miskinlarga sadaqa qildim. Agar bu aniq aytilgan bo‘lsa ham, uning vafotdan keyinga bog‘lanmagani sahih bo‘lmaydi. Chunki ma’dum foydani sadaqa qilish, agar vasiyat qilinmagan bo‘lsa, sahih bo‘lmaydi. Shunga o‘xshash, vaqf qilish shu tarzda amalga oshirilgan bo‘lsa ham, u sahih bo‘lmaydi (Qozixon, 2009:159).

Qozixon vaqf hukmi borasidagi Abu Hanifa va ikki sohibi o‘rtasidagi mazkur ixtilofning sababini bayon qilib, shunday deydi:«Vaqf Imom Abu Hanifa va uning as’hoblari nazdida joizdir. Faqatgina Abu Yusuf va Muhammadning qarashiga ko‘ra, agar vaqf sahih bo‘lsa, vaqf qiluvchining mulkidan chiqadi, lekin yangi mulkdorga o‘tmaydi». Imom Abu Hanifa fikriga ko‘ra esa, vaqf oriya singari joiz hisoblanadi. Islom huquqida oriya bepul foydalanish uchun biror narsani vaqtincha foydalanishga berishni anglatadi (Quduriy, 2010:409).

Imom Abu Yusuf va Imom Muhammad nazdidagi vaqf ta’rifi esa quyidagichadir:«Aynni o‘z mulkimdan chiqarib, Allohning mulkiga topshirdim va uni bandalarga manfaati yetishi uchun Alloh taoloning hukmiga habs qildim». Bunda ayn bandalarga mulk bo‘lmaydi. Agar bu haqda aniq matn bo‘lsa, sahih bo‘ladi. Hatto u vasiyat qilinmagan yoki vafotdan keyingi davrga bog‘liq bo‘lmagan bo‘lsa ham. Masalan, agar inson o‘z uyini masjid qilsa, bu sahih bo‘ladi.

Vaqfga berilgan ta’riflarning farqli ekani vaqfning shar’iy hukmi borasida ham Abu Hanifa va uning ikki shogirdi fikrlari o‘rtasida xilma-xillikning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Imom Abu Hanifa nazdida vaqfning shar’iy hukmi mulkning asli kimningdir mulkida habs qilingan (asli sotilmaydigan, hadya qilinmaydigan va meros qoldirilmaydigan) va foydasi vaqf haqdorlariga o‘tkaziladigan mulkka aylanishidir. Unga ko‘ra, mulk birovning qo‘lidan boshqa bir odamning qo‘liga o‘tishi va hali mavjud bo‘lmagan foydani sadaqa qilish qabul qilinmaydi. Chunki biror narsaning shar’iy hukmi o‘sha narsaning o‘zi mavjud bo‘lishi orqali sobit bo‘ladi. Imom Abu Hanifaning fikriga ko‘ra, vaqfning shartlari to‘liq bajarilganidan so‘ng vaqf qilish orqali sobit bo‘ladigan hukm ana shudir.

Imom Abu Yusuf va Imom Muhammad nazdida esa vaqfning shar’iy hukmi vaqf qilinayotgan mulkning vaqf qiluvchi tasarrufidan chiqib, Alloh taoloning mulkiga o‘tishidir. Ularning fikrlariga ko‘ra, vaqf qilish orqali sobit bo‘lgan hukm shudir.

«Kitob al-vaqf»da mutaaxxir muhaqqiqlarning Imom Abu Hanifa va uning ikki as’hobi o‘rtasidagi ixtilofga izoh berilgan. Unga ko‘ra, Imom Abu Hanifa nazdida vaqf joiz emas, degan fikr xatodir. U noto‘g‘ri talqin qilingan. Imom Abu Hanifaning nazdida vaqf joiz bo‘lsa-da, lekin lozim emas. Bu vaqfni sotish, hadya qilish va undan meros bo‘lib qolish haqqiga ega bo‘lingunga qadar amal qiladi. Sadr shahid buni izohlab, «Zohir ar-rivoya»da zikr qililganidek, «aslida holat shunday», deya ta’kidlagan. Bu mavzu «I’lo as-sunan» asarida ham atroflicha tahlil qilingan (Ashraf Ali Tahonaviy va b., 2011:167-228). Mazkur asarda Imom Abu Hanifaning qarashiga ko‘ra vaqfni joiz emas, deb talqin qiluvchi ulamolarga nisbatan «Imom Abu Hanifaning fikriga ko‘ra joiz emas, deb gumon qiladilar» degan jumla qo‘llanilgan va bu fikr gumonga tenglashtirilgan. Imom Abu Hanifaning masjid va

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

qabriston kabi aynan o‘zidan foydalanish mumkin bo‘lgan vaqflarni joiz deb hisoblashi, aynan o‘zidan emas, balki daromadidan foydalanish mumkin bo‘lgan vaqflar daromadi vaqf qiluvchi inson hayotligida belgilab bergan maqsadlarga sarflanishini ham joiz deb hisoblashi, faqatgina ana o‘sha daromad keltiruvchi mulk kimning tasarrufida bo‘lishi haqida ekanligini ta’kidlagan. Bahs faqat vaqf qiluvchi o‘zi vaqf qilgan mulkning aslini o‘z tasarrufida qoldirishi, daromadini esa farzandlariga, nabiralariga, ulardan so‘ng faqirlarga vaqf qilishi masalasida ekani ilova qilingan.

Imom Abu Hanifaning nazdida vaqf quyidagi uch holatdan birida lozim bo‘ladi:

1. Ishni ko‘rayotgan hokim sahih da’vo va bayyina (bayonnoma, vaqf hujjati) yoki uning o‘rnini bosuvchi narsa (hujjat)dan so‘ng lozimligi haqida hukm chiqarsa.

2. Vaqf qiluvchi o‘z vaqfini vasiyat bilan o‘z tasarrufidan chiqarsa. Vaqf qiluvchi ushbu vasiyatini o‘zgartirmay vafot etsa, vaqfga vasiyat qilgan bo‘ladi va o‘limidan keyin qoldirgan mulkining 1/3 qismi vaqfga chiqariladi.

3. Vaqf masjidga aylantirilib, unda namoz uchun azon aytilgan va jamoat namoz o‘qilgan holatda (Ashub, 37-39).

Sadr shahid bu boradagi ixtilofga Tahoviyning izohini ham ilova qilgan. Unga ko‘ra, Imom Abu Hanifaning nazdida, agar u muayyan mulkni vaqf uchun vasiyatni kasal bo‘lgan paytida amalga oshirgan bo‘lsa, o‘limidan keyinga bog‘lagandek bo‘ladi. Chunki maraz al-mavt (o‘lim kasalligi holati)da kasal odamning tasarrufi hukman o‘limdan keyinga bog‘langan(dagi hukm) kabi bo‘ladi.

O‘lim kasalligi – insonning vafot etishiga sabab bo‘luvchi kasallikdir. Chunonchi, insonning o‘limiga sabab bo‘lish xavfi bo‘lgan holatlar ham shu jumladandir. Masalan, dengizda dovul ko‘tarilib, kemaning cho‘kib ketib, undagi yo‘lovchilarning halok bo‘lishiga sabab bo‘ladigan holat ham bunga misol bo‘ladi (Ashub, 80).

Sadr shahid Tahoviyning fikriga ham o‘z munosabatini bildirib, «To‘g‘ri fikr shundan iboratki, kasallik paytida biror ishni bajargan shaxs uni sog‘lom holatida bajargandek bo‘ladi. «Zohir ar-rivoya»ga ko‘ra, bu amal joiz emasligi nuqtai nazaridan shunday qaraladi. Boshqa mutaaxxir faqihlarning fikriga binoan, bunday amal lozim bo‘lmaydi (majburiy kuchga ega bo‘lmaydi) va meros olishga ham to‘sqinlik qilmaydi. U oriya (qarzga olingan narsa) kabi hisoblanadi. Biroq agar u «hayotligimda va o‘limimdan keyin, deb aytsa, va u (amal) muabbada (doimiy, abadiy tarzda) bo‘lsa, u holda lozim bo‘ladi», deya ta’kidlagan. Sadr shahid o‘z so‘ziga ilova qilib, Abu Yusuf avvaliga Abu Hanifaning so‘zini aytgani, lekin keyinchalik Horun Rashid bilan birga haj ziyoratini amalga oshirganida Madina va uning atroflarida sahobiylar vaqflarini ko‘rgach, fikrini o‘zgartirib, uning joizligi va lozimligi haqida fatvo berganini bayon qilgan.

Faqihlar qarashlari o‘rtasidagi farqlar aks etgan yana bir mavzu farzandlarga, farzandlardan esa faqirlariga vaqf qilish masalalarini o‘z ichiga oladi (Sadr shahid, 2013:62-66).

Faqirlik sifatlarining zikridan oldin bobda ko‘rlik va kichiklik kabi vaqtinchalik yoki doimiy sifatlar yoritilgan, vaqf qiluvchining lafzi aynan qaysi farzandlarga tegishli bo‘lishi aniqlashtirilgan.

Sadr shahid tegishli bobning birinchi qismida (Kitobda «Birinchi vajh» deb nomlangan) ta’kidlashicha, agar kishi o‘z yerini ko‘zi ojiz farzandlariga vaqf qilsa va vaqf qilgan paytda uning ko‘zi ojiz farzandlari bor bo‘lsa, keyinchalik boshqa farzandi ham ko‘r bo‘lib qolsa, vaqf huquqi vaqf qilingan vaqtda mavjud bo‘lgan ko‘zi ojiz farzandlarga tegishli bo‘ladi. Bu joydagi fiqhiy qoida shundan iboratki, agar bir kishi birovni o‘zgarmaydigan sifat yoki o‘zgarsa ham qaytmaydigan sifat bilan tavsiflagan bo‘lsa, bu sifat ism o‘rniga o‘tadi.

Mazkur qoidani Sadr shahid quyidagicha sharhlaydi:«Bu bo‘limdagi asl (qoida) shuki:agar (bir kishi) birovni o‘zgarmaydigan sifati yoki o‘zgarsa ham qaytmaydigan sifat bilan tavsiflagan bo‘lsa, bu sifat ism o‘rniga o‘tadi. Ko‘rlik (a’var) yo‘qolmaydigan sifat bo‘lgani bois, uning zikri («a’var» deb aytish) ism o‘rnida bo‘ladi («ko‘zi ojiz» deb aynan o‘sha vaqtda ko‘zi ojiz bo‘lgan farzandning ismini aytgan kabi bo‘ladi). Agar u:«(Ushbu yerimni) falon ismli farzandlarimga (vaqf qildim)», deganidan keyin yana farzandli bo‘lsa, unga vaqf qilingan farzandlarining ismini qo‘ygani bilan, yangi tug‘ilgan farzandning mazkur vaqf daromadida haqqi bo‘lmaydi. Shuningdek, «Farzandlarimdan kichik (yoshda) bo‘lganlariga (vaqf qildim)», deb aytsa, buning hukmi quyidagicha bo‘ladi:«vaqf (qilingan) kundagi kichik (yoshda) bo‘lgan (bolalar)ga qaraladi (hisobga olinadi), chunki kichiklik sifati o‘tib ketsa, qaytib kelmaydi. Shu sababli, kichiklikning zikri ism o‘rniga o‘tadi».

Mavzuga oid ikkinchi qismda kambag‘al (faqir) farzandlarga vaqf qilish xususida so‘z boradi. Unda ta’kidlanishicha, kishi o‘z yerini faqir farzandlariga vaqf qilib:«Faqir farzandlarimga vaqf qildim», degan bo‘lsa-yu, bundan boshqa hech narsa aytmagan bo‘lsa, bunda daromad chiqqan vaqtdagi faqir farzandlar hisobga olinadi. Chunki haqning ularga vojib bo‘lishi aynan daromad hosil bo‘lgan kunda yuzaga keladi. Shuningdek, agar u:«Basrada yashaydigan qarindoshlarimga vaqf qildim», desa, daromad hosil

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

bo‘lgan kunda Basrada yashayotgan qarindoshlari hisobga olinadi.

Mavzuga oid uchinchi qismda «Bu yerim o‘z farzandlarimga yoki falonchining farzandlariga sadaqa mavqufadir», degan so‘z haqida boradi. Abu Bakr Hilol ibn Yahyoning qarashiga ko‘ra, bu holatdagi hukm ikkinchi qismdagi hukm kabi bo‘ladi. Sadr shahid bu haqida:«Mashoyixlarimiz ham shunday olganlar», deya ta’kidlagan. Shuningdek, Yusuf ibn Xolid Samtiy bu holatda hukm birinchi qismdagi hukm kabi bo‘lishini qo‘shimcha qilgan. Yusuf ibn Xolid Samtiyning bu boradagi izohi farzandlar uchun haqlilik aynan vaqf paytida vojib (sobit) bo‘lishi bilan izohlanadi. Samtiy dalil sifatida, agar vaqf qiluvchi shaxs o‘z hayoti davomida vaqfdan qaytmoqchi bo‘lsa, uning qaytishi sahih (joiz) bo‘lmasligini bayon qiladi. Shuningdek, vaqfdan foydalanuvchiga haqning vojib (sobit) bo‘lishida vaqf qilgan kuni vasiyat oluvchiga mulkning vojib (sobit) bo‘lishida vasiyat qiluvchining o‘lgan kuniga teng bo‘lishini zikr qiladi.

Ayni mavzuda Hilol ibn Yahyo o‘z qarashini haqlilik daromadda vojib (sobit) bo‘lishi bilan izohlaydi. Uning fikricha, «tasadduq», ya’ni vaqf daromadda joriy bo‘lgan. Shuning uchun daromad hosil bo‘lgan vaqt hisobga olinadi, daromad hosil bo‘lgan kun haq vojib (sobit) bo‘lishida vasiyat bobida vasiyat qilingan (shaxs)ga mulk vojib (sobit) bo‘lishida vasiyat qiluvchi (shaxs)ning o‘lim kuni kabi bo‘ladi (ya’ni, vaqf qilingan kun vaqfdan foydalanuvchi huquqining sobit bo‘lishi vasiyatda mulkiy huquqni sobit qiladigan o‘lim kuniga o‘xshaydi). So‘ng daromadda farzandga haq sobit bo‘ladigan har qanday holatda (bu haq) nasabi ma’ruf bo‘lgan farzandga sobit bo‘ladi. Agar ma’ruf bo‘lmasa, u vaqf qiluvchining so‘zi bilan bilinadi va daromad u (farzand)lardan nasabi ma’ruf bo‘lganlariga tegishli bo‘ladi.

Farzandlarga qilingan vaqfda daromad (g‘alla) bo‘yicha mulk vojib bo‘ladigan kun, ya’ni vaqf qiluvchi vaqf nazarda tutgan vaqf daromadi haqdorlariga vaqfdan haq berish vojib bo‘ladigan kun mavzusi ham turli qarashlarni o‘z ichiga oladi. Hilol ibn Yahyo «Kitob al-vaqf» asarida vojib bo‘lish kuni deb daromadning qiymati mavjud bo‘lgan kunni e’tiborga olgan. Shuningdek, u mazkur qiymat xarajatlardan ortiq bo‘lishi shart emasligini ilova qilgan. Sadr shahidning ta’kidlashicha, ba’zi ulamolar bu kunning daromad xarajatlardan ortiq bo‘lgan qiymati mavjud bo‘lgan kun ekanini ta’kidlaganlar. Hatto agar ekin kuzda sabzavot holatiga kirsa va qiymatga ega bo‘lsa, keyin qishda aynib qolsa, bahorda yana yangidan unib chiqsa, u holda daromad vaqf qiluvchining kuzda mavjud bo‘lgan farzandlariga beriladi. Chunki o‘sha vaqtda u qiymatga ega bo‘lgan va bu qiymat xarajatlardan ortiq bo‘lgan. Shuningdek, ulamolar nazdida bu hosilning daromadi vaqf qiluvchining kuzda mavjud bo‘lgan farzandlariga tegadi, ulardan keyin tug‘ilgan farzandlariga esa berilmaydi.

Sadr shahid bu borada o‘z davridagi mutaaxxirin mujtahidlar fikrlarini ham keltirib o‘tgan: «Bizning diyorimizdagi mashoyixlarimizdan mutaaxxirin (oxirgi davr faqih)larining ba’zilari shunday deganlar: «Bu daromad qiymatga ega bo‘lgan kun qiymat xarajatlar, xiroj (yer solig‘i) va muohid (zimmiy, islom diyorlarida musulmonlar bilan ahdlashuv asosida yashovchi)larning favqulodda xarajatlaridan ortgan kun bo‘lmasligi kerak». Sadr shahid bu so‘zlarga o‘z munosabatini bildirgan. Unga ko‘ra, mutaaxxirin ulamolarning shunday qarashga ega bo‘lishlariga sabab shuki, xiroj va zimmiylar favqulodda xarajatlari daromaddagi vojib qarzga o‘xshaydi va u zimmasida qarz bilan vafot etgan va ortida mol-mulk qoldirgan bemor o‘rnida bo‘ladi. Bu holatda agar qarz vafot etgan shaxsdan qolgan mol-mulkni qamrab olsa, unda mol-mulk merosxo‘rlarga tegmaydi, balki qarzni to‘lashga sarflanadi. Agar qarz tarakani qamrab olmasa, ya’ni mayyitdan qolgan mol-mulk (taraka)dan kam bo‘lsa, unda mol-mulk qarz shu mulkdan to‘lanishi sharti bilan merosxo‘rlarga tegadi. Daromadning holati ham shunday bo‘ladi. Agar unda xiroj va xarajatlardan ortgan foyda mavjud bo‘lmasa, u holda daromad xiroj va xarajatlarga sarflanadi. Ammo agar foyda mavjud bo‘lsa, u holda bu foyda xiroj va xarajatlar yuklangan holda vaqf haqdorlariga tegadi.

Shuningdek, vaqf haqdorlarining vafot etish mavzusi ham tilga olingan. Hilol ibn Yahyoning so‘ziga ko‘ra, vaqf haqdorlaridan biri vafot etsa, vaziyat ikki xil baholanadi. Birinchidan, agar u daromad qiymatga ega bo‘lishidan oldin vafot etsa, uning hissasi meros bo‘lmaydi. Ikkinchidan, agar u daromad qiymatga ega bo‘lganidan keyin vafot etsa, uning hissasi meros bo‘ladi, ya’ni vorislariga tegadi. Sadr shahid bu hukm haqida munosabat bildirib, boshqa ulamolar ham shu qarashda bo‘lganlarini ta’kidlagan.

Vaqf daromadiga haqdorlik vujudga kelish vaqti haqidagi fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, vaqf daromadidan haqning sobit bo‘lish vaqti, Abu Bakr Hilol va mashoyixlarning nazdida, foyda chiqqan kunda sobit bo‘ladi. Bu esa foyda hosil bo‘lmagan yillarda vaqf shaxslariga taqsimot yo‘qligini anglatadi. Faqihlar foyda «mavjud» hisoblanishi uchun xarajatlar, xiroj (yer solig‘i) va zimmiylarning favqulodda xarajatlaridan ortib qolishi kerakligini shart qiladilar. Vaqf haqdorining merosi masalasiga kelsak, faqat daromad «mavjud» bo‘lgandan keyin vafot etgan shaxsning hissasi meros hisoblanadi. Bu vaqf daromadining ham mulk

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

sifatida merosga o‘tishini tasdiqlaydi. Mazkur fikrlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, faqihlar tomonidan bildirilgan haqdorlik sobit bo‘lish vaqti haqidagi fikrlar o‘rta asr fiqhida «daromad real bo‘lishi kerak», degan iqtisodiy mezonni aniq belgilaydi – xarajat va soliqdan so‘ng qolgan qismgina foyda hisoblanadi. Sadr shahid munosabatlarida huquqiy qiyos (analogiya)ning amalda qo‘llanish holatlari ko‘p uchraydi. Jumladan, Sadr shahid ushbu mavzu doirasida faqihlarning farqli fikrlarini zikr qilganida, ularga o‘z munosabatini bildiradi, zarur o‘rinlarda qiyos va istihsonga bilan asoslagan holda o‘z ijtihodini bayon qiladi.

Faqihlar fikrlaridagi tafovutlar zikr qilingan boblardan yana biri kishi o‘z yerini faqir qarindoshlariga vaqf qilishi, qarindoshlaridan qaysi biri faqir bo‘lsa, unga vaqfda haq sobit qilinishi va kim boy bo‘lsa sobit qilinmasligi kabi mavzularni o‘z ichiga oladi (Sadr shahid, 2013:76-79).

Bu o‘rinda matnda asosiy masala sifatida bir shaxs o‘z yerini qarindoshlarining faqirlariga vaqf qilishi olingan. Muammo sifatida esa uning qarindoshlaridan biri «men faqirman» deya vaqfdan haq da’vo qilish holati tahlil qilingan hamda uning vaqfdan ulush olishi mumkin yoki yo‘qligi haqidagi savolga javob berilgan. Asarda mazkur qarindoshning ulush olish-olmasligi uning faqirlik yoki boylik maqomiga qarab baholangan.

Sadr shahid masalani sharhlashda quyidagi holatni zikr qiladi:kishi o‘z yerini faqir qarindoshlariga vaqf qiladi. Shunda qarindoshlaridan biri kelib:«Men faqirman», dedi. Uning holati ikki xil (vajh) bo‘lishi mumkin. Birinchisida u kuchli va kasb bilan mashg‘ul bo‘lgan bo‘ladi. Ikkinchisida u kasb qilishdan ojiz bo‘ladi (Sadr shahid, 2013:76-77).

Sadr shahidning ta’kidlashicha, birinchi holat, ya’ni qarindoshlardan biri kelib, o‘zining faqirligini aytib, vaqfdan haq talab qilsa, shu bilan birga, u mehnat qilishga qodir bo‘lsa va muayyan ishi bo‘lsa, u holda agar uning mol-mulki bo‘lmasa, unga vaqfda haq sobit qilinadi. Chunki bu tatavvu’ sadaqasi bo‘lib, unga, garchi u muayyan kasbdan daromad olayotgan bo‘lsa ham, zakotga xilof ravishda, ushbu sadaqani olish joiz bo‘ladi. Holbuki, kuchli va muayyan kasb egasi bo‘lgan kishining zakotni so‘rab olish yo‘li bilan qabul qilishi makruh bo‘ladi. Muallif mavzuga oid boshqa fikrlarni ham keltirib o‘tgan. Unga ko‘ra, ba’zi ulamolar kasbga qodir kishiga vaqfdan daromad ajratish makruh bo‘lmasligini, lekin uning so‘rashi makruh ekanligini ta’kidlaganlar. Zakotda esa kuchi va kasbi bo‘lgan kishi uchun har ikkala ish (zakotni so‘rab olish va so‘ramasada, birov zakot berganda olish) ham makruhdir. Bundan ko‘rinadiki, vaqf kontekstida faqirlik mezonlari zakot kontekstidagidan qisman farq qiladi. Bu holat zakotning farzligi va uning haqdorlari Qur’oni Karimda ochiq belgilanganligi, vaqf esa ixtiyoriy bo‘lib, amalga oshganidan so‘nggina lozimlik kasb etishi, uning haqdorlari esa vaqf qiluvchi tomonidan belgilanishi bilan bog‘liqdir.

Ikkinchi holatda faqirligini aytib, vaqfdan haq talab qilib kelgan shaxsga tegishli ikkinchi holat uning kasbdan ojiz bo‘lishidir. «Kitob al-vaqf»da bunday kishiga tegishli olti holat sanab o‘tilgan bo‘lib, ular quyidagilardir:

1. Uning mol-mulki bo‘lmaydi.
2. Uning zakot vojib bo‘ladigan mol-mulki bo‘ladi.
3. Uning zakot vojib bo‘ladigan mol-mulki bo‘lmaydi, lekin tijorat maqsadida emas, balki o‘zi foydalanadigan buyumlari va idishlari bo‘ladi.
4. Uning buyumlari va idishlari bo‘lmaydi, biroq ehtiyoji uchun yetarli miqdorda daromad oladigan ekinzor yeri va boshqa mulklari bo‘ladi. Biroq ularning umumiy bahosi ikki yuz dirhamdan kam yoki ikki yuz dirham va undan ortiq bo‘ladi.
5. Uning o‘z ehtiyoji uchun yetarli miqdorda hosil va daromad olinmaydigan va qiymati ikki yuz dirhamdan kam bo‘lgan ekin ekiladigan yerlari va daromad beradigan mulklari bo‘ladi.
6. Uning o‘z ehtiyoji uchun yetarli miqdorda daromad bermaydigan, lekin qiymati ikki yuz dirham va undan ortiq bo‘lgan ekin ekiladigan yerlari va daromad beradigan mulklari bo‘ladi.

Sadr shahid mazkur holatlarning har biriga tegishli hukmlarni izohlari bilan keltirgan. Ba’zi o‘rinlarda esa faqihlarning bir-biriga zid fikrlari va asoslarini ham zikr qilgan.

Unga ko‘ra, birinchi holat, ya’ni uning mol-mulki bo‘lmagan holatda u uchun vaqfda haq sobit bo‘ladi va unga vaqf sadaqasidan olish halol bo‘ladi. Sadr shahid dalil sifatida Tavba surasining 60-oyatini zikr qilgan:«Albatta, sadaqalar faqirlar uchundir». Ikkinchi holatda, ya’ni uning zakot vojib bo‘ladigan mol-mulki mavjud bo‘lgan holatda esa u uchun vaqfda haq sobit bo‘lmaydi va unga vaqf sadaqasidan olish halol bo‘lmaydi. Sadr shahid bu hukmni izohlab:«Chunki u boydir. Boy odamga esa vaqf sadaqasini ham, zakot sadaqasini ham olish halol bo‘lmaydi», deya ta’kidlagan (Sadr shahid, 2013:77). Uchinchi holatda, ya’ni faqirlik da’vosi bilan kelgan, zakot vojib bo‘ladigan mol-mulki bo‘lmagan, ammo tijorat maqsadida foydalanmaydigan buyumlari va idishlari bo‘lgan kishiga vaqfdan haq ajratishda haqdorlik vaziyatga ko‘ra baholanadi. Agar u o‘zida mavjud bo‘lgan barcha buyumlarga muhtoj bo‘lsa va unda o‘z ehtiyojidan ortiq narsa bo‘lmasa, u holda unga vaqfdan haq sobit bo‘ladi va unga vaqf sadaqasidan olish halol bo‘ladi. Chunki u faqirdir.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Lekin agar u o‘zida mavjud bo‘lgan barcha buyumlarga muhtoj bo‘lmasa va ularda ikki yuz dirham va undan ortiq miqdordagi o‘z ehtiyojidan ortiq buyum bo‘lsa, u holda u uchun vaqfdan haq sobit bo‘lmaydi va unga vaqf sadaqasidan olish halol bo‘lmaydi. Chunki uning yetarli ta’minoti mavjud.

Matnda faqirlik chegarasi sifatida ikki yuz dirham belgilanishi mulkdan zakot berishdagi qat’iy qoidaga asoslanadi. Bunda ikki yuz dirhamgacha bo‘lgan mablag‘dan zakot berilmasligi haqidagi hadislar va ularga ko‘ra olingan fiqhiy hukmlarga (Zaylaiy, nashr yili ko‘rsatilmagan:363) tayaniladi.

To‘rtinchi holatda, ya’ni faqirlik da’vosidagi kishining buyumlari va idishlari bo‘lmagan, lekin o‘z ehtiyoji uchun yetarli miqdorda daromad oladigan ekin maydonlari va daromad keltiruvchi mulklari bo‘lgan, ammo ularning umumiy bahosi ikki yuz dirhamdan kam yoki ikki yuz dirham va undan ortiq bo‘lgan holatda u uchun vaqfdan haq sobit bo‘lmaydi va unga vaqf sadaqasidan olish halol bo‘lmaydi. Sadr shahid bu hukm izohida ham yuqoridagi kabi, «chunki u faqir emas», degan iborani qo‘llagan.

Beshinchi holatda, ya’ni faqirlik da’vosidagi kishining o‘z ehtiyoji uchun yetarli miqdorda hosil va daromad olmaydigan hamda qiymati ikki yuz dirhamdan kam bo‘lgan ekin maydonlari va daromad keltiruvchi mulklari bo‘lgan holatda u uchun vaqfdan haq sobit bo‘ladi va unga vaqf sadaqasidan olish halol bo‘ladi. Sadr shahid ta’biri bilan aytganda, u faqir hisoblanadi.

Oltinchi holatda, ya’ni faqirlik da’vosidagi kishining ehtiyoji uchun yetarli miqdorda daromad olmaydigan, lekin qiymati ikki yuz dirham va undan ortiq bo‘lgan ekin ekiladigan yerlari va daromad keltiruvchi mulklari bo‘lgan holatda Abu Hanifa va Abu Yusuf ta’kidlagan, Hilol ibn Yahyo qabul qilgan qarashga ko‘ra, unga vaqfdan haq sobit bo‘lmaydi (Zaylaiy, nashr yili ko‘rsatilmagan:363). Oltinchi holat yuqoridagi boshqa holatlarga qaraganda ancha tafovutli hisoblanadi. Chunki Muhammad Shayboniy mazkur holatni faqirlik hisoblab, unga vaqfdan haq sobit bo‘lishini ta’kidlagan. Faqihlardan Muhammad ibn Salama va Muhammad ibn Muqotil Roziy ham ana shu fikrni olgan.

Sadr shahid bu borada boshqa fikrlarni va o‘zining shaxsiy ijtihodlarini ham keltirgan. Unga ko‘ra, agar ekin ekiladigan yerning aybi sababli egasining ehtiyojini qoplaydigan miqdorda hosil/daromad bermasa, u holda u faqir hisoblanadi. Ammo agar bu holat ekin ekiladigan yerning aybi bilan bo‘lmasa, lekin egasining yerga ishlov berishda kamchilikka yo‘l qo‘yishi hamda uni qarovsiz tashlab qo‘yishi sababli bo‘lsa, u boy hisoblanadi. Bu fikr yuqoridagi nisbatan umumiy fikrlarni vaziyat taqozosiga ko‘ra ikkiga ajratgan.

Sadr shahid o‘zining vaqfga oid ijtihodlarini bayon etishda o‘zidan oldingi mutaqaddim faqihlarning so‘zlarini asos sifatida olgan bo‘lsa, mutaaxxir faqihlarning fikrlarini esa yangi hukmlar uchun asos sifatida e’tiborga olgan. Faqihlarning bahsli fikrlari muallifni mazkur bahslarga aloqador ijtihodlarini bayon etishga undagan.

Sadr shahid faqirlik da’vosidagi odamning ehtiyoji uchun yetarli miqdorda daromad olmaydigan, lekin qiymati ikki yuz dirham va undan ortiq bo‘lgan ekin ekiladigan yerlari va daromad keltiruvchi mulklari bo‘lgan holat bilan bog‘liq mavzuni yanada kengroq yoritib, unga aloqador ayrim savollarni o‘rtaga tashlagan. Ulardan ba’zilari quyida keltiriladi:

1. Agar faqirlardan birida o‘tgan yilgi daromadidan qolgan ikki yuz dirham yoki undan ortiq mablag‘i bo‘lsa va u ikkinchi yilning daromadiga yetib kelsa, u vaqfdan daromad olishga haqli bo‘ladimi yoki yo‘qmi, degan savoldir. Faqihning fikricha, u uchun vaqfdan haq sobit bo‘lmaydi. Chunki u boy hisoblanadi. Vaqf qiluvchi esa faqirlarga berilsin, degan shart qo‘ygan.

2. Agar ikki yillik daromad bir vaqtda jamlangan holda olinsa, vaqf haqdorlaridan har bir kishining har bir yillik daromadidan ulushi ham ikki yuz dirham yoki undan ortiq bo‘lsa, u holda u bu ikki daromaddan ham ulush olishi halolmi yoki yo‘qmi degan savol o‘rtaga tashlangan. Sadr shahid bu vaziyatda har ikkala daromaddan haq olish halol ekanini ta’kidlagan. Faqihning mavzuni izohlash uslubi o‘ziga xos bo‘lib, u mazkur holatni har ikkala daromadning mavjud bo‘lgan vaqti faqirlik holatiga to‘g‘ri kelgani bilan izohlagan. Uning vaziyatni kengroq tushuntirish uchun keltirgan quyidagi misoli mavzuni chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi:«Agar bir kishi o‘zining faqir qarindoshlari uchun vasiyat qilsa, boshqa bir kishi ham uning faqir qarindoshlari uchun vasiyat qilsa va ularning ikkalasi bir vaqtda vafot etsa, vasiyat qilingan faqirlardan har biriga ularning har birining vasiyatidan ikki yuz dirhamdan ortiq tegsa, unda har bir vasiyatdan ularga haq vojib bo‘ladi. Ammo agar ular birin-ketin vafot eta, u holda oxirgi vafot qilgan kishining vasiyatidan ularga haq berilmaydi. Bu yerda ham (ikki yillik daromad birdan olinganda ham) shunday» (Sadr shahid, 2013:78).

Jamlangan daromad mavzusidagi yana bir kichik bo‘lim vaqf qiluvchi tomonidan tayinlangan kunlik yoki yillik taom masalasini ham o‘z ichiga oladi. Unga ko‘ra, agar vaqf qiluvchi har bir kishiga ozuqa tayinlagan bo‘lsa va ikki daromad bir vaqtda yetib kelsa, unda har bir kishiga har bir daromaddan bel-

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

gilangan ozuqa miqdoriga teng ulush tegadi. Agar daromaddan biri avval yetib kelsa hamda ulardan biriga mazkur daromaddan ikki yuz dirham tegsa, u holda uning ikkinchi daromadda haqqi bo‘lmaydi. Ammo agar birinchi daromaddan olgan ulushi ikki yuz dirhamdan kam bo‘lsa, u holda unga ikkinchi daromaddan ozuqa beriladi. Sadr shahid ozuqani sharhlab shunday deydi:«Ozuqa (qut)dan murod insonning o‘zi va oilasi uchun yetarli miqdorda ta’minotga ega bo‘lishidir. Bu holatda vaqfning daromadiga qaraladi. Agar yer daromadi bir yillik ozuqani bersa, shunga qarab baholanadi. Agar do‘konlarning (havaniyt) daromadi bir oylik ozuqani bersa, shunga qarab belgilanadi» (Sadr shahid, 2013:79).

«Kitob al-vaqf»da qamrab olingan mavzular, xususan, ushbu tadqiqot mavzusi doirasida tanlab olingan matnlar tahlilidan ko‘rinadiki, har bir fiqhiy bahsning yechim va xulosalari yangi savollarni keltirib chiqargan. Qolaversa, vaqfdagi faqirlik da’vosi masalasi muallif tomonidan ancha keng va batafsil yoritilishi haqli yoki nohaq ravishda vaqflardan foydalanish istagi va da’vosining amaliyotda tez-tez uchrab turganini ko‘rsatadi.

Muallifning faqirlik da’vosini qiluvchi shaxsga tegishli holatlarni kategoriyalarga ajratganidan ko‘rinadiki, unda shaxs holatini baholash mezonlari sifatida, eng avvalo, u muayyan kasb bilan shug‘ullanishga qodir yoki ojiz ekani aniqlangan. Shundan keyin uning moliya va aktivlari tahlil qilingan (bular pul, yer, savdo buyumlari, daromad keltiruvchi mulklar va daromad darajasidan iborat bo‘lib, quyida batafsil yoritiladi). Fiqhiy chegaraviy norma sifatida esa an’anaviy tarzda ikki yuz dirham belgilangan. Mazkur miqdor faqirlik-boylik mezoni sifatida ishlatilgan.

Faqirlik va zakotga haqdorlik Qur’oni Karimda ochiq bayon etilgan. Muallif vaqf kontekstidagi faqirlik mezonini aniqlashtirishda o‘ziga xos uslub qo‘llagan. Zakotga haqdor bo‘lmaydigan ayrim toifalarni vaqfga haqdor sifatida baholagan. Buni izohlashda zakotning farzligi, vaqfning esa tatavvu’ sadaqasi ekani ta’kidlangan. Klassik fiqhiy manbalarda vaqf qiluvchining vaqf haqdoriga nisbatan shartlari «Vaqfda vaqf qiluvchining sharti shariatda Shori’ning (Allohning) sharti kabidir» mazmunidagi iboralar (Saraxsiy, 13:27) faqihning vaqfdagi haqdorlik masalasida faqirlik mavzusiga bo‘lgan yondashuvini qo‘llab-quvvatlaydi.

Daromadi farzandlar, qarindoshlar yoki begonalar orasidagi faqirlari uchun atalgan vaqflarning haqdorlarini aniqlashtirishda faqihning eng daqiq mavzulargacha to‘xtalishi, shubhasiz, o‘z davrida vaqflar doirasida ijtimoiy siyosatni optimallashtirishda qo‘l kelgan. Bu kabi siyosat yordam resurslarini haqiqiy muhtojlarga yo‘naltirish orqali tizimni tejamkor qilib, haqdor bo‘lmaganlar uchun ortiqcha xarajat sarflanishining oldini olishga xizmat qilgan. Bu kabi siyosat AQShda 1930-yillarga kelibgina qo‘llana boshlagan «Mablag‘ tekshiruvi» (Means Testing») siyosatiga juda o‘xshaydi. «Mablag‘ tekshiruvi» uslubi shaxs yoki oilaning daromadi, jamg‘armalari, mulki va boshqa moliyaviy resurslariga asoslanib, davlat yordami, ijtimoiy nafaqalar yoki boshqa imtiyozli huquqlarga ega bo‘lish huquqini aniqlash jarayonidir. Bu usul universal yordamdan farqli ravishda, faqat muhtojlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yordamni samarali taqsimlashga qaratilgan (Rafal Chomic, 2015:2-18). Hozirda ham AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Singapur, Irlandiya va Avstraliyada yordam resurslarini to‘g‘ri yo‘naltirishda aynan shu usul qo‘llaniladi.

Faqihning vaqfdagi faqirlik va unga bog‘liq ravishda zakot kontekstidagi faqirlik mavzusidagi ijtihodlari islom huquqida faqirlik faqat mablag‘ yoki mol-mulk miqdori bilan baholanmasligini, balki shaxsning jismoniy va kasbiy holati hamda mulkdan foydalanish darajasi (daromadni ishlatish imkoniyati) ham hisobga olinishini ko‘rsatadi. Shuningdek, yerning hosil berish darajasi va egasining uni ishlata olish qobiliyati ham mezon sifatida qaraladi. Bular zamonaviy iqtisodiy tizimlarda e’tiborga olinmaydigan nihoyatda ahamiyatli jihatlardir. Mazkur jihatlar zamonaviy kambag‘allik chegarasi mezonlaridan qisman farqlidir. Zero, zamonaviy iqtisodiy tizimlarda mutlaq kambag‘allik, nisbiy kambag‘allik kabi mezonlar mavjud. Mutlaq kambag‘allik chegarasi minimal hayotiy ehtiyojlar uchun zarur bo‘lgan kunlik pul miqdorini (2025-yilda kuniga 3 AQSH dollari) bildiradi. Bu miqdor eng qashshoq mamlakatlarning milliy chegaralarining o‘rtacha qiymatiga asoslangan hamda inflyatsiya va xarid qobiliyati farqlarini hisobga oladi. Nisbiy kambag‘allik chegarasi esa mamlakatdagi o‘rtacha daromadning 50-60% idan past darajadagi daromadni bildiradi.U ijtimoiy inklyuziyani hisobga oladi va kambag‘allikni boylik taqsimoti kontekstida ko‘rsatadi (Jonathan Haughton & o., 2009:39-115). Shuningdek, UNDP va Oksford Qashshoqlik va inson taraqqiyoti markazi tomonidan ishlab chiqilgan ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi ham mavjud bo‘lib, u pul bilan birga salomatlik, ta’lim, hayot sifati (suv, elektr, sharoit) kabilarni hisobga oladi. O‘zbekistonda milliy chegara sifatida oyiga 669 ming so‘m (kuniga taxminan 22 ming so‘m) belgilangan. Mamlakatda ko‘p o‘lchovli yondashuv ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, u salomatlik, ta’lim va infratuzilmani baholaydi.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Normativ minimal iste'mol savati ishlatiladi va ijtimoiy dasturlar bu chegara asosida baholanadi (Tursunqulov, 2024:157-162).

NATIJA

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, «Kitob al-vaqf»da nomi zikr etilgan faqihlar, ya'ni Abu Hanifa, Abu Yusuf, Muhammad Shayboniy, Zufar ibn Huzayl, Abu Ja'far Tahoviy, Abu xolid Yusuf Samtiy va boshqalarning vaqf mulkchiligi, vaqfga haqdorlik, vaqf daromadining birlashib haqdorga yetib kelishi, vaqf va vasiyat o‘rtasidagi aloqalar kabi masalalardagi ixtiloflari nafaqat hukmlarda, balki metodologik darajada namoyon bo‘ladi. Bu ixtiloflar faqihning vaqf qilingan mulk egasi kim bo‘lishi, qo‘yilgan shartlar qay darajada to‘g‘ri (sahih) ekanligi, faqir deb kimlarga aytilishi, vaqf kimga qilinishidan qat'i nazar, yakunda yana faqirlarga qolishi, vaqfdan foydalanuvchini belgilashda vaqtinchalik va doimiy sifat haqidagi fikrlaridan tortib, mazkur qarashlaridan kelib chiqqan fiqhiy xulosalariga borib taqaladi.

Faqihlarning xulosalaridagi tafovutlar ular yashagan davrning ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklari bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, Imom Abu Yusufning Hijoz safaridan so‘ng vaqf mulkchiligi hamda uning lozimligi borasidagi o‘z fikrini o‘zgartirishi fiqhda huquqiy-amaliy tajribaning rolini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu holat fiqhning hayotiylik va moslashuvchanlik prinsipini ham namoyon etadi. Boshqa tomondan, vaqf mulkchiligidagi mulkning egasiga qaytmasligi, meros va hadya qilinmasligi, aniq belgilangan vaziyatlardan boshqa vaziyatlarda o‘zgartirilmasligi va almashtirilmasligi kabi qat'iy cheklovlar esa vaqf mulki barqarorligini ta'minlash hamda uni xavf-xatarlardan va yo‘q bo‘lib ketishdan himoya qilish zarurati bilan bog‘liq.

Sadr Shahid asarlarining zamonaviy ahamiyati shundan iboratki, u hanafiy mazhabidagi turli qarashlarni jamlab, huquqiy noaniqlikni (shubha) bartaraf etishga xizmat qilgan. Uning ishi keyingi avlod olimlari va qozilar uchun murakkab vaziyatlarda (masalan, vaqf mablag‘larining noto‘g‘ri boshqarilishi, nizolar) qaror qabul qilishda aniq huquqiy asos yaratgan.

Fiqhiy manbalarda faqirlik chegarasi sifatida belgilangan miqdor (nisob miqdori) ba'zi o‘rinlarda zamonaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan muvofiqdir. Ikki yuz dirham mezoni o‘sha davr uchun minimal hayotiy xarajat normasi sifatida ishlatilgan. Bugungi kunda bu «yashash minimali» yoki «poverty line» (kambag‘allik chegarasi)ga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, islom huquqida vaqf kontekstida faqirlik mezonini hisobga olishda shaxsga, uning mulkiga, mulkini boshqara olish qobiliyatiga, mulkdan foyda olish ehtimolligiga va boshqa zaruriy omillarga ham e'tibor qaratilgani, bu yondashuvning haqiqiy faqirlarni ajrata bilish va faqirlar uchun atalgan mablag‘larni o‘z o‘rniga aniq yo‘naltirishdagi ahamiyati ochib berildi.

XULOSA

Sadr shahid va uning zikr etgan faqihlarining fiqhiy xulosalaridagi tafovutlar nafaqat nazariy-huquqiy munozaralar, balki islom huquqining ijtimoiy o‘zgarishlar va amaliy muammolarga nisbatan jonli va moslashuvchan ekanligining dalilidir. Ushbu an'anaviy fikr-munozaralar, ayniqsa, vaqf mulkchiligi va unga haqdorlik masalalarida, zamonaviy korporativ boshqaruv (Corporate Governance), mulkchilik huquqlari (Property Rights) va maqsadli ijtimoiy dasturlarning huquqiy asoslarini yaratishda beqiyos manba hisoblanadi.

Asarda faqihlarning qarashlari uchta asosiy maqsadga xizmat qiladi:a) nazariy asos:Abu Hanifa va shogirdlarining ixtilofli qarashlarini keltirish orqali vaqf nazariyasining manbaini mustahkamlash; b) qiyosiy yondashuv:qarama-qarshi fikrlarni muhokama qilish va muallifning o‘z pozitsiyasini aniqlash; v) amaliy ko‘rsatma:o‘z davridagi sud amaliyotiga yo‘l ko‘rsatish, xususan, vaqf hujjatlari va boshqaruvi bo‘yicha qozilarga tavsiya berish.

Vaqfning asosiy maqsadi va ijtimoiy vazifasi faqirlar va muhtojlarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Vaqfning ijtimoiy ahamiyati zamonaviy ijtimoiy siyosat bilan bog‘liq muhokamalar uchun asos yaratadi. Islom huquqida faqirlik nisbiy tushuncha hisoblanadi. U mol-mulkning mavjud yoki mavjud emasligi bilan emas, balki ehtiyojning qondirilmaganligi bilan o‘lchanadi. Shu sababli, daromad yetarli bo‘lmagan yuqori qiymatli aktiv egasi ham fiqhiy ma'noda faqir bo‘lishi mumkin.

Vaqf zakotdan kengroq ijtimoiy institutdir. Zakotda qoidalar qat'iyroq, vaqfda esa shaxsiy niyat va shartga qarab moslashuvchanlik mavjud. Fiqhiy ixtiloflar faqihlarning ijtihodiy yondashuvlari asosida kelib chiqadi. Vaqf mavzusidagi farqli hukmlar klassik fiqhning ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurdagi chuqur yondashuvini ko‘rsatadi.

«Kitob al-vaqf»da zikr etilgan faqihlarning fikrlari nafaqat fiqhiy manba sifatida, balki tarixiy-madaniy kontekstni tushunish vositasi sifatida ham muhimdir. Ularning qarashlari orqali Husomuddin Umar Buxoriy Saljuqiylar, xususan, Qoraxoniylar Movarounnahrda

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ularning vassali sifatida hukm surgan davrda vaqf institutining qanday ishlaganini, boy va faqirlar o‘rtasidagi ijtimoiy tenglik qanday ta’minlanganini va davlatning bu jarayondagi rolini ochib beradi. Asar orqali vaqfning islom huquqidagi o‘rni nafaqat diniy, balki ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni saqlash vositasi ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu esa bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduljalil Abdurrohman Ashub. (n.d.). Kitob al-vaqf.
2. Abdulkarim ibn Muhammad Sam’oniy. (1998). Kitob al-ansob (Vol. 1). Dor al-kutub al-ilmiya.
3. Abul Hasan Ahmad ibn Muhammad Quduriy. (2010). Muxtasar al-Quduriy fi-l-fiqh al-hanafiy. Dor al-bashoir al-islomiya.
4. Abu Bakr Umar ibn Ahmad Shayboniy (Hassof). (1902). Kitob ahkom al-avqof. Divon umum al-avqof al-misriya.
5. Muhammad Abdulhay al-Laknaviy. (1924). Al-Favoid al-bahiya fi tarojim al-hanafiya. Matba’a al-olam.
6. Ashraf Ali Tahonaviy & Zafar Ahmad Usmoniy Tahonaviy. (2011). I’lo as-sunan. Misvak nashriyoti.
7. Burhonuddin Ali ibn Abu Bakr Marg‘inoniy. (2022). Hidoya sharh Bidoyat al-mubtadi. Hilol nashriyot-matbaasi.
8. R. Chomic et al. (2015). Means testing social security: Modeling and policy analysis. Michigan Retirement Research Center.
9. Faxruddin Hasan ibn Mansur O‘zjandiy (Qozixon). (2009). Fatavo Qozixon fi fiqh al-hanafiya. Dor al-kutub al-ilmiya.
10. Jonathan Haughton & Shahidur R. Khandker. (2009). Handbook on poverty and inequality. The World Bank.
11. Hilol ibn Yahyo ibn Muslim Basriy. (1936). Kitob ahkom al-vaqf. Haydarobod.
12. Muhammad Ayyubxon Homidov. (2022). Imom A’zam. Hilol-Nashr.
13. Muhammad ibn Ahmad Qurashiy. (1914). Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya (Vols. 1–3). Doira al-maorif an-nizomiya.
14. Muhammad ibn Ali Dovudiy. (1972). Tabaqot al-mufassirin (Vol. 1). Dor al-kutub al-arabiya.
15. Zaynuddin Qosim ibn Qutlubug‘o. (1992). Toj at-tarojim fi tabaqot al-hanafiya. Dor al-qalam.
16. Sadr shahid Abul Mafoxir Husomuddin Umar ibn Abdulaziz ibn Moza Buxoriy. (2013). Kitob al-vaqf (Abdulloh Nazir Ahmad, Ed.). Haram kutubxonasi.
17. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2022). Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. Hilol nashriyot-matbaasi.
18. Muhammad Xuzariybek. (1975). Tarix at-tashri’ al-islomiy. Qohira.
19. J.F.Tursunqulov. (2024). Aholining iste’mol savatchasiga bo‘lgan talabi. Tadqiqotlar – jahon ilmiy-metodik jurnali.

REFERENCES

1. Abduljalil Abdurrohman Ashub. (n.d.). Kitob al-vaqf.
2. Abdulkarim ibn Muhammad Sam’oniy. (1998). Kitob al-ansob (Vol. 1). Dor al-kutub al-ilmiya.
3. Abul Hasan Ahmad ibn Muhammad Quduriy. (2010). Muxtasar al-Quduriy fi-l-fiqh al-hanafiy. Dor al-bashoir al-islomiya.
4. Abu Bakr Umar ibn Ahmad Shayboniy (Hassof). (1902). Kitob ahkom al-avqof. Divon umum al-avqof al-misriya.
5. Muhammad Abdulhay al-Laknaviy. (1924). Al-Favoid al-bahiya fi tarojim al-hanafiya. Matba’a al-olam.
6. Ashraf Ali Tahonaviy & Zafar Ahmad Usmoniy Tahonaviy. (2011). I’lo as-sunan. Misvak nashriyoti.
7. Burhonuddin Ali ibn Abu Bakr Marg‘inoniy. (2022). Hidoya sharh Bidoyat al-mubtadi. Hilol nashriyot-matbaasi.
8. R. Chomic et al. (2015). Means testing social security: Modeling and policy analysis. Michigan Retirement Research Center.
9. Faxruddin Hasan ibn Mansur O‘zjandiy (Qozixon). (2009). Fatavo Qozixon fi fiqh al-hanafiya. Dor al-kutub al-ilmiya.
10. Jonathan Haughton & Shahidur R. Khandker. (2009). Handbook on poverty and inequality. The World Bank.
11. Hilol ibn Yahyo ibn Muslim Basriy. (1936). Kitob ahkom al-vaqf. Haydarobod.
12. Muhammad Ayyubxon Homidov. (2022). Imom A’zam. Hilol-Nashr.
13. Muhammad ibn Ahmad Qurashiy. (1914). Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya (Vols. 1–3). Doira al-maorif an-nizomiya.
14. Muhammad ibn Ali Dovudiy. (1972). Tabaqot al-mufassirin (Vol. 1). Dor al-kutub al-arabiya.
15. Zaynuddin Qosim ibn Qutlubugho. (1992). Toj at-tarojim fi tabaqot al-hanafiya. Dor al-qalam.
16. Sadr shahid Abul Mafoxir Husomuddin Umar ibn Abdulaziz ibn Moza Buxoriy. (2013). Kitob al-vaqf (Abdulloh Nazir Ahmad, Ed.). Haram kutubxonasi.
17. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2022). Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. Hilol nashriyot-matbaasi.
18. Muhammad Xuzariybek. (1975). Tarix at-tashri’ al-islomiy. Qohira.
19. J.F.Tursunqulov. (2024). Aholining iste’mol savatchasiga bo‘lgan talabi. Tadqiqotlar – jahon ilmiy-metodik jurnali.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

2/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 10.11.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 1/8.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

“Standard Poligraf Service”
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.